



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston
Respublikasi Oliy sudi
Raisi
B.Islamov
21.01.2026-yil

**Sud organlarida manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash,
bartaraf etish hamda ularning oldini olish, shuningdek sudlarda korrupsiyaga nisbatan
toqatsizlik muhitini shakllantirish bo‘yicha 2026-yilga mo‘ljallangan
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Sudya va sud xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish	Sudya va sud xodimlari tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirilishini ta’minlash (<i>Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi namunasi asosida</i>)	2026 yil yanvar	Kadrlar boshqarmasi, Ichki nazorat guruhi, Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari
2.	Sudlarda odil sudlovni amalga oshirishda korrupsiyaning oldini olish	Sudyalar o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, unga imkoniyat yaratib berayotgan funktsiya va vazifalarni tahlil qilish hamda sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish	2026 yil yanvar	Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari
3.	Sudya va sud apparati xodimlarining moddiy hamda ijtimoiy ahvolini o‘rganish	Sudya va sud apparati xodimlarining moddiy hamda ijtimoiy ahvoli, ish faoliyatiga salbiy ta’sir	Doimiy	Kadrlar boshqarmasi, Ichki nazorat guruhi,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		ko'rsatuvchi hamda korrupsiya xavfini yuzaga keltiruvchi boshqa omillarni o'rganish, natijasi bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritib borish		Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari
4.	Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi professional faoliyatiga har qanday aralashuvning oldini olish	Sudyalarning daxlsizligiga, sudning faoliyatiga har qanday aralashuvlarning oldini olish bo'yicha profilaktik suhbatlar o'tkazish	Doimiy	Oliy sud raisining birinchi o'rinbosari A. Usmanov, Kadrlar boshqarmasi, Malaka hay'ati bo'limi
5.	Sohada korrupsiyaviy holatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar haqida OAV orqali keng jamoatchilikni xabardor qilish	"Sudlar korrupsiyaga mutlaqo qarshi" rukni ostida sohada amalga oshirilayotgan samarali tashabbuslar haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish	Doimiy	Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi, Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari
6.	Sudlarda sud apparati xodimlarining odob-axloq qoidalari va mehnat intizomiga rioya qilishlari yuzasidan inspeksion tekshiruvlar o'tkazish	Sudlarda sud apparati xodimlarining odob-axloq qoidalari, mehnat intizomiga, fuqarolar va taraflar bilan munosabatda muomala madaniyatlariga rioya qilishlari, sud xodimi degan nomga dog' tushiruvchi xatti-harakatlar sodir etganligi yoki etishga moyilligi yuzasidan inspeksion tekshiruvlar o'tkazish. Natijalarini har yarim yilda umumlashtirib, rahbariyatga axborot kiritish.	Doimiy	Kadrlar boshqarmasi, Ichki nazorat guruhi
7.	Sudlarning kadrlar zaxirasini halol, mas'uliyatli va munosib nomzodlar bilan to'ldirish choralarini ko'rish	Oliy sud va quyi sudlar apparatining kadrlar zaxirasini shakllashtirish, sudga ishga kirish istagini bildirgan nomzodlarni inspeksion o'rganish	Doimiy	Apparat rahbari A. Xolmaxmatov, Kadrlar boshqarmasi, Ichki nazorat guruhi, Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari
8.	Sudlarda kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda xodimlarni ishga qabul qilish	Sudlarda bo'sh ish o'rinlari (vakant joylar) haqida rasmiy veb-saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi	Doimiy	Kadrlar boshqarmasi, Jamoatchilik bilan

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	jarayonida eng munosib kadrlarni tanlab olish (meritokratiya) tamoyili asosida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash	sahifalarda e'lonlar berib borish		hamkorlik markazi
9.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini aniqlash maqsadida tizimli ravishda o'rganishlar va so'rovlar tashkil etib borish hamda natijalarini keng jamoatchilikka e'lon qilish	Sudyalar va sud xodimlari o'rtasida anonim so'rovlar tashkil etish va o'tkazish. So'rovnoma natijalarini OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish. Natijasi bo'yicha rahbariyatga axborot kiritish	2026-yil May	Apparat rahbari A. Xolmaxmatov, Kadrlar boshqarmasi, Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi
10.	Tizimda ishlayotgan hamda amaliyot o'tayotgan yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etish	Yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tizimda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan uchrashuvlar o'tkazish orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish	Doimiy	Oliy sud raisi o'rinbosarlari, Apparat rahbari A. Xolmaxmatov, Kadrlar boshqarmasi, Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari
11.	Jamoatchilik va OAV vakillari uchun press-konferensiya va press-turlar tashkil etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tizimda amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritish	Jamoatchilik va OAV vakillari ishtirokida press-tur va matbuot anjumanlarini o'tkazish bo'yicha reja-grafik ishlab chiqish va uni amalga oshirilishini ta'minlash	Alohida reja-grafikka asosan	Apparat rahbari A. Xolmaxmatov, Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi, Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari
12.	Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish hamda Attestatsiya komissiyalarini shakllantirish jarayonida mahalliychilik, nepotizm (tanish-bilishchilik) hamda boshqa korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida komplayens nazorat tekshiruvlarini o'tkazish	Oliy sud va quyi sudlarning hamda Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti va uning hududiy bo'limlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazilishini va mansab darajasi berilishini ta'minlab borish	Doimiy	Apparat rahbari A. Xolmaxmatov, Kadrlar boshqarmasi, Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
13.	Sud apparati xodimlariga korrupsiya holatlari oldini olish yuzasidan ma'naviy-ma'rifiy profilaktik tadbirlarni o'tkazish	Sudlarda o'tkaziladigan "Marifat soatlari" ish rejasiga tizimda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan mavzularni kiritish va ularni belgilangan tartibda o'tkazish. O'tkazilayotgan tadbirlarni OAVda keng yoritish	Alohida reja-grafikka asosan	Apparat rahbari A. Xolmaxmatov, Kadrlar boshqarmasi, Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi, Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari
14.	Sud xodimlarining kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashning boshqa yo'nalishlari bo'yicha o'quv kurslarda doimiy va tizimli ravishda o'qitish tartibini joriy etish	Sud xodimlarining kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashning boshqa yo'nalishlari bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish	Alohida reja-grafikka asosan	Kadrlar boshqarmasi, Ichki nazorat guruhi
15.	Sud apparati xodimlari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilganlik holatlarini o'rganish	Jinoiy hamda ma'muriy javobgarlikka tortilgan sud apparati xodimlari haqidagi ma'lumotlarni va ular haqidagi axborotlarni jamlab umumlashtirish. Natijasi bo'yicha Oliy sud rahbariyatiga axborot kiritish	2026-yil noyabr	Apparat rahbari A. Xolmaxmatov, Kadrlar boshqarmasi, Ichki nazorat guruhi
16.	Sudlarda korrupsiyaviy holatlarni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar va ko'rilgan choralarni umumlashtirish	2026-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish va ularni oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish natijalarini Oliy sud raisiga axborot qilish	2026-yil dekabr	Apparat rahbari A. Xolmaxmatov, Kadrlar boshqarmasi, Ichki nazorat guruhi

Izoh: Zaruriyat tug'ilganda belgilangan tadbirlarning ijro muddatlariga o'zgartirish kiritilishi mumkin.